



Yevropa Ittifoqi moliyaviy  
ko'magi bilan ta'minlangan



unicef 

Har bir bola uchun

# BOLALARNING MEHNAT HUQUQLARI



Mazkur nashr Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi yordamida tayyorlangan. Uning mazmuniga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va UNICEF mas'uliyatli bo'lib, bu masala bo'yicha Yevropa Ittifoqining nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.

“  
**Ushbu qo'llanma yordamida  
bolalarning mehnat huquqi haqida qiziqarli,  
siz uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarga  
ega bo'lishingiz mumkin.**

**Unutmang mehnat huquqiga oid bilimlar  
sizga doim zarur bo'ladi, qayerda,  
kim bo'lib ishlashingizdan qat'iy nazar.**  
”

## MEHNAT HUQUQI HAQIDA TUSHUNCHA

Mehnat huquqi bilan har bir inson albatta duch keladi. Qayergadir ishga kiradi, qilgan mehnati uchun oylik yoki kunlik miqdorda mablag' oladi, dam olish uchun ta'tilga chiqadi.



O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko'ra maktab yoshidagi **15 yoshli** bola ota-onasining (**ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning**) roziligi bilan ishlashi mumkinligi belgilangan. Demak siz qayergadir ishga kirmoqchi bo'lsangiz, **15 yoshdan** ishlashingiz mumkin bo'ladi. Buning uchun dastavval mehnat huquqini yaxshilab o'rganishingiz kerak bo'ladi.

## MEHNAT HUQUQI NIMA UCHUN KERAK?

Albatta har bir bola maktabni, kollej, litsey hamda universitetlarni bitirib yaxshi joylarda ishlayman deb maqsad qiladi. Kimdir, sudya, advokat, o'qituvchi, shifokor bo'laman deb, ya'na kimdir stomotolog, IT mutaxassi, ko'p tillarni o'rganib tarjimon bo'laman deb niyat qiladi. Maqsadi va niyati yo'lida tinimsiz o'qib, tirishqoqlik bilan mehnat qiladi.

Istalgan idora yoki tashkilotda ishlashdan oldin eng avvalo, siz mehnat huquqlaringiz bilan tanishib chiqishingiz va ularni yaxshilab bilib olishingiz, bu kelgusida sizning mehnat huquqlaringizning buzilishini oldini olishga yordam beradi.

Demak qadrli bolalar har birimiz mehnat huquqimizni yaxshilab bilib olishimiz zarur ekan!



*Davlat tomonidan bolalarning mehnat huquqi kafolatlanadi.*

## **BOLALARNING MEHNAT HUQUQI**

Qo'llanma yordamida siz bilan quyidagi mavzularni o'zlashtirib olamiz:

- Bolalar uchun mehnat yoshi;
- Bolalar uchun ish vaqti;
- Bolalar uchun ta'qiqlangan ishlar;
- Bolalarni ishga qabul qilishda tibbiy ko'rikdan o'tish;
- Bolalar uchun mehnat ta'tili.

Bilasizmi qonunchiligimizda bolalarning huquqlarini himoya qilishga oid juda ham ko'plab qonunlar qabul qilingan. Mana shu qonunlar yordamida bolalarning mehnat huquqi kafolatlangan. Agarda kimdir bolalarning mehnat huquqlarini buzadigan bo'lsa javobgarlikka tortilishi mumkinligi ham ko'rsatib o'tilgan.

## BOLALAR UCHUN MEHNAT YOSHI

Qonunchiligimizda bolalarni ishga qabul qilish yoshi **16 yosh** etib belgilangan. Lekin bolalar **15 yoshdan** ham ishlash mumkin. Buning uchun qonunchilikda ko'rsatib o'tilgan talablarni bajarish talab etiladi. Ya'ni **15 yoshdan** boshlab ishlashingiz uchun **ota-onangizning (ularni o'rnini bosuvchi shaxsning)** roziligi kerak. Lekin ishingiz **sog'lig'in-giz** hamda **o'qishingizga** yomon ta'sir etmasligi lozim.



## BOLALAR UCHUN ISH VAQTI

Odatda ko'pgina ishlar haftaning dushanba kundan juma kunigacha ayrim joylarda shanba kunigacha davom etadi. Mana shu hafta kunlari orasida siz yo 5 kun yoki 6 kun davomida ishlashingizga to'g'ri keladi. Yakshanba kuni esa **dam olish kuni** sifatida e'lon qilingan. Agar siz 15 yoshdan boshlab ishlaydigan bo'lsangiz dushanbadan-juma kunigacha ma'lum vaqt mobaynida ishlashingiz kerak.

ISH KUNLARI						
S	M	T	W	T	F	S
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30	31					



**15 yoshdan 16 yoshgacha** bo'lgan bolalar haftasiga **24 soat** ishlashlari mumkin. Bundan ortiq ishlashga ruxsat berilmaydi. Misol uchun siz haftasiga **5 kun** ishlasangiz kuniga – **5 soat**, **6 kun** ishlasangiz kuniga – **4 soatdan ortiq** ishlamaslingiz lozim.

**16 yoshdan 18 yoshgacha** bo'lgan bolalar esa haftasiga **36 soatdan** ortiq ishlashi mumkin emas.

**18 yoshdan** boshlab esa haftasiga ish vaqti **40 soatni** tashkil etadi.

Ko'pgina xorijiy davlatlarda ish vaqti kattalar uchun **40 soat** etib belgilangan. Bu xalqaro norma hisoblanadi.

Bolalar uchun ish vaqti yoshi, rivojlanishi, ishlash uchun energiyasi, kuchi va boshqa omillar hisob-kitobi evaziga ish vaqtining me'yori belgilab berilgan.





## BOLALAR UCHUN TA'QIQLANGAN ISHLAR

Bilasizmi qonunchilikda **18 yoshgacha** bo'lgan bolalar yuk ko'taradigan yoki tashiydigan ishlar bilan shug'ullanadigan bo'lsa, ular ko'tarishi va tashishi mumkin bo'lgan **og'ir yuklarning me'yori** ko'rsatib o'tilgan.



**16 yoshgacha** bo'lgan bolaning bajaradigan ishining bir qismi yuk ko'tarishni o'z ichiga oladigan bo'lsa ma'lum miqdordagi yukni ko'tarishi kerak.

Buni sizga quyidagi misol bilan tushuntiramiz, siz hozir masalan 17 yoshdasiz hamda 1 hafta davomida mehnat qonunchiligi bo'yicha 36 soat ishlashingiz mumkin.

Shunda 1 kun davomida 6 soat ishlashingizga to'g'ri keladi. Mana shu 6 soat ishingiz qo'lda yuk ko'tarishingiz bilan bog'liq bo'lsa, 6 soatning faqat **ikki soati** yuk ko'tarish bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Mana shu vaqt davomida o'g'il va qiz bolalar biror-bir yukni ko'taranda yoki tashiganda ular ko'taradigan yukning me'yori quyidagicha bo'lishi kerak:

- **o'g'il bolalar** uchun — **6,5 kg**;
- **qiz bolalar** uchun — **3,5 kg dan** og'ir bo'lmasligi lozim.

**16 yoshgacha** bo'lgan bolalarning ish vaqti faqat yuklarni qo'lda ko'tarish va tashishdan iborat bo'lsa mazkur yuk **2 kg dan** og'ir bo'lmasligi lozim.

**16 yoshgacha** bo'lgan bolalarga **aravacha** va **vagonetka** yordamida yuk tashishlariga **ruxsat berilmaydi**.



Bilasizmi, **bolalarga quyidagi mehnat turlari bilan shug'ullanish ta'qiqlanadi:**

- mehnat sharoiti zararli va xavfli bo'lgan ishlarda (qurilish ishlarida, elektr yoki issiqlik tarmoqlarida va boshqa);\*
- yer osti ishlarida;
- bolalarning hayotiga va sog'lig'iga, xavfsizligiga va ma'naviy jihatdan kamol topishiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda (*tungi kafe va klublarda, spirtli ichimliklarni, tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik va psixotrop moddalarni, toksik preparatlarni ishlab chiqarish, tashish hamda sotish va boshqalar*).

***\*Mazkur ro'yxat bilan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi 290-son qarorida yoki quyidagi havola orqali tanishingiz mumkin-  
<https://lex.uz/ru/pdfs/6533020>.***

## BOLALARNI ISHGA QABUL QILISHDA TIBBIY KO'RIKDAN O'TISH

Ishga qabul qilishdan oldin, ishlash paytida barcha xodimlar tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Bunga asosiy sabab xodimlarning salomatligini himoya qilish, ularning mehnatga layoqatligini tekshirish, yuqumli bo'lgan kasalliklarga chalinishini oldini olishdan iborat.

Jumladan 18 yoshgacha bolalar ham tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

**18 yoshgacha** bo'lgan bolalar dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tganidan keyin ishga qabul qilinadi.



## BOLALAR UCHUN MEHNAT TA'TILI

Har bir inson xoh katta, xoh kichkina bo'lishidan qa'tiy nazar har yili mehnat ta'tiliga chiqishi, mazza qilib hordiq chiqarishi lozim. 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun qonunchiligimizda mehnat ta'tili belgilab berilgan.

Unga ko'ra **18 yoshgacha bo'lgan** bolalarga kamida **30 kunlik** mehnat ta'tili beriladi.

**15 yoshli bolalarga** yozgi ta'tili davomida **4 haftadan** ortiq ishlashiga ruxsat berilmaydi.



## MEHNAT HUQUQLARI BUZILSA QAYERGA MUROJAAT QILISH KERAK?

**18 yoshgacha** bo'lgan bolalar sudda mehnat huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini shaxsan himoya qilish huquqiga ega.

Mehnat huquqlari buzilsa **fuqarolik ishlari bo'yicha sudga** murojaat qilishi lozim.



Bilasizmi, har biringiz mehnat huquqingizni qanchalik yaxshi bil-sangiz, shunchalik o'zingizga foyda bo'ladi. Hech kim sizni qonunlarda ta'qiqlagan ishlarga jalb etishga haqli emas.

Shunday ekan, agarda kimdir sizni majburiy mehnatga jalb qilayot-gan bo'lsa, unda tegishli organlarga, mehnat faoliyati bilan shug'ulla-nuvchi tashkilotlarga xabar berishingiz zarur.

Ular sizning murojaatingizni o'rganib chiqib mutasaddi shaxslarga tegishli choralar ko'radi.

**MEHNATNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI VAKOLATLI  
DAVLAT ORGANINING RO'YXATI:**

<b>Nº</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>Telefon raqami</b>
<b>1.</b>	<b>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</b>	<b>+998 71 203 01 41</b>
<b>2.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi</b>	<b>1003</b>

***Eslatma: Boshqa vazirlik va idoralar, mahalliy hokimiyat organlari ham mehnat muhofazasi sohasida faoliyat olib boradi.***

Yevropa Ittifoqi zamonaviy nou-xaular, resurslar va taqdirlarini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lgan mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlarituzildi. Adliya vazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz sheriklarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birgalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib borib, bunda bizning asosiy e'tiborimiz dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini hurmat qiladigan dunyoga o'z qarashlarini amalga oshirish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.



### **Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi**

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: [delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu](mailto:delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu)

Website: [www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan\\_en](http://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en)

Facebook: [www.facebook.com/edudeluzb](http://www.facebook.com/edudeluzb)

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi**

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: [info@adliya.uz](mailto:info@adliya.uz)

Website: [www.adliya.uz](http://www.adliya.uz)

### **BMTning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi**

Poytakht Business Markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: [tashkent@unicef.org](mailto:tashkent@unicef.org)

Website: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>